



Immigrantlar uchun jamoat tashkilotlariga yo'riqnoma

Capital Region
2019

Mundarija

| | |
|--|----------|
| New York State Education Department tashkilotining Office of Bilingual Education and World Languages boshqarmasidan xabar..... | 3 |
| Yaqinda immigratsiyaga oid o'tkazilgan tadbirlar bo'yicha qo'llanma..... | 5 |
| Ushbu qo'llanmadan qanday foydalanish haqida ma'lumot..... | 7 |
| Tashkilot katalogi..... | 8 |
| 1. Albany Law School Immigration Law Clinic (Albany, NY)..... | 8 |
| 2. Capital District Beginnings (East Greenbush, NY)..... | 8 |
| 3. Catholic Charities of the Diocese of Albany (Albany, NY)..... | 8 |
| 4. Commission on Economic Opportunity (Troy, NY)..... | 8 |
| 5. Empire Justice Center (Albany, NY)..... | 9 |
| 6. Healthy Capital District Initiative (Albany, NY)..... | 9 |
| 7. The Legal Project (Albany, NY)..... | 9 |
| 8. Legal Services of Central New York (Broome, Cayuga, Chenango, Cortland, Delaware, Herkimer, Jefferson, Lewis, Madison, Oneida, Onondaga, Otsego, and Oswego, NY)..... | 10 |
| 9. Saratoga County Economic Opportunity Council, Inc. (Ballston Spa, NY)..... | 10 |
| 10. U.S. Committee for Refugees and Immigrants (Albany, NY)..... | 10 |
| Shtat bo'yicha resurslar..... | 11 |
| Shtatdagi jamoat tashkilotlari..... | 12 |
| Tashakkurnoma..... | 15 |

"Immigrantlar uchun jamoat tashkilotlariga yo'riqnoma" hamma foydalanishi uchun ochiq bo'lishi kerak. The New York State Education Department (NYSED) tashkiloti ro'yxatda keltirilgan tashkilotlar ko'rsatadigan xizmatlar sifatini na nazorat qiladi va na kafolatlaydi, na tashkilotga berilgan biror havola NYSED o'sha tashkilot yoki uning xizmatlarini ma'qullashini anglatadi.

* Tashkilot diniy mansubligidan qat'iy nazar, xizmatlarini barchaga taklif etadi.

New York State Education Department tashkilotining Office of Bilingual Education and World Languages boshqarmasidan xabar

Ota-onalar, vasiylar va ota-ona o'rnidagi boshqa kishilarning boxabar va vakolatli jamoasi Multilingual Learners/English Language Learners (MLLs/ELLs) (Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilar) yaxshi qo'llab-quvvatlanishi va gullab-yashnashi uchun muhim ahamiyatga ega. New York State Education Department tashkilotining Office of Bilingual Education and World Languages boshqarmasi (OBEWL) "Immigrantlar uchun jamoat tashkilotlariga yo'riqnoma" ishlab chiqdi va unda butun New York shtatidagi tashkilotlarning ro'yxati mavjud. Har bir tashkilot turli xizmatlarni taklif etadi. Ushbu ayrim xizmatlar qatoriga ota-onalar va hamjamiyatga foydasi tegadigan targ'ibot va hamjamiyat ishlariga hissa qo'shish, sog'liqni saqlash va sug'urta, turarjoy, mehnat va bandlik, yuridik xizmatlar va huquqiy maqom, davlat yordami, xavfsizlik, yoshlar va ta'limga oid xizmatlar kiradi.

OBEWL butun New York shtati bo'ylab MLLs/ELLs va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlashga harakat qilmoqda. MLLs/ELLs ota-onalari va sobiq MLLs/ELLs yordam zarur bo'lganda osha tashkilotlarga murojaat qilishlari tavsiya etiladi. Oilalarning ehtiyojlari qondirilsa, bolalarda o'qishda muvaffaqiyatga erishish hamda kollejga o'qishga kirish va ishga tayyorgarlik uchun asos paydo bo'ladi.

OBEWL yana MLLs/ELLs ota-onalari uchun ko'plab resurslar tayyorladi va ular siz uchun foydali bo'lishi mumkin.

- **Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilarning ota-onalari uchun resurslar** - Bu yerdan siz bolalar qanday qilib MLLs sifatida aniqlanishi, MLLs/ELLs uchun mavjud dasturlar, o'quvchilar qachon MLL/ELL dasturlari va xizmatlaridan chiqishi hamda ota-onalar qanday qilib mahalliy maktablardan qo'shimcha ma'lumot, materiallar va resurslar olishi mumkinligi haqidagi ma'lumotlarni topasiz.
<http://www.nysed.gov/bilingual-ed/english-language-learnermultilingual-learner-parent-resources>
- **New York shtatidagi Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilarning ota-onalari uchun yo'riqnoma** - Bu 10 betli buklet bo'lib, "Ikki tilli ta'lim va ingliz tili yangi til sifatida" dasturining tafsilotlari, MLLs/ELLs haqidagi tez-tez so'raladigan savollar, ikki tillilik va ikki tilli ta'lim to'g'risidagi faktlar, MLL/ELL'ning ota-onalari uchun resurslar va "Farzandingizning ta'lim olishida qatnashish"ga oid maslahatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu buklet New York shtatida yigirma beshta tilga, jumladan, MLL/ELL oilasida eng ko'p so'zlashuvchi 10 ta tilga tarjima qilindi.
<http://www.nysed.gov/bilingual-ed/guide-parents-english-language-learnersmultilingual-learners-new-york-state>
- **Huquq haqidagi ota-onalar billi** - Ushbu hujjatda MLLs/ELLs va ota-onalar uchun bilim olish va dasturlardan bahramand bo'lishga oid eng muhim huquq qisqacha bayon qilinadi. Ushbu asosiy huquq oson foydalanish uchun bir betlik formatda qisqacha bayon qilingan va 27 tilga tarjima qilingan.
<http://www.nysed.gov/bilingual-ed/parents-bill-rights-new-york-states-english-language-learnersmultilingual-learners-ell>

- **Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilarning ota-onalari uchun ishonch liniyasi** – Ushbu ishonch liniyasi MLLs/ELLs'ning ota-onalari, vasiylari va ota-ona o'rnidagi boshqa kishilarini Ta'lim komissari qarorining 154-bandiga ko'ra bolalarning huquqi va ularga ko'rsatiladigan xizmatlar haqida ma'lumot berish uchun tashkil qilingan. Ushbu qaror bunday xizmatlar ko'rsatish haqidagi muayyan so'rovlarga javob berish mexanizmini ham tavsiflab beradi. **Telefon raqami:** (800) 469-8224
<https://steinhardt.nyu.edu/metrocenter/ellparenthotline>
- **NYSITELL va NYSESLAT'ning ota-onalar uchun yo'riqnomasi**– Ushbu yo'riqнома ikki xil baholash haqida tushuncha beradi. Ularga ko'ra, ona tili yoki asosiy so'zlashuv tili ingliz tilidan boshqa bo'lgan o'quvchilarning ingliz tilini bilishi darajasi/malakasi baholanadi. Yo'riqнома 22 ta tilga tarjima qilingan.
<http://www.nysed.gov/bilingual-ed/nysitell-and-nyseslat-parent-guides>
- **Ota-onalarga mo'ljallangan video: Nyu-York shtatida Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun dasturlardan 10 ta tilda bahramand bo'lish mumkin** – Ushbu interfaol paneldagi animatsion videoda MLL / ELL'ning kimligini aniqlash va baholash jarayoni tavsiflanadi hamda dastruning turli foydalanish mumkin bo'lgan variantlari haqida hikoya qilinadi. Unda, shuningdek, "Ingliz tili yangi til sifatida" va turli "Ikki tilli ta'lim" dastur modellari o'rtasidagi farqlar haqida so'z yuritiladi.
<http://www.nysed.gov/bilingual-ed/parent-orientation-video-english-language-learner-ell-programs-new-york-state>
"Video Narration" matni yana 9 ta qo'shimcha tilda ham mavjud
<http://www.nysed.gov/bilingual-ed/parent-orientation-video-english-language-learner-ell-programs-new-york-state>
- **Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun kollejga yo'l xaritasi** – New York shtatidagi Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun kollejga kirish yo'riqnomasi.
<http://www.nysed.gov/bilingual-ed/roadmap-college>
- Bundan tashqari, New York State Education Department tashkilotining har bir boshqarmasi ota-onalarni qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha resurslar yaratdi. Departamentning barcha boshqarmalari ro'yxatini ko'rish uchun quyidagiga kiring:
<http://www.nysed.gov/about/program-offices>

Yaqinda immigratsiyaga oid o'tkazilgan tadbirlar bo'yicha qo'llanma

New York State Education Department (NYSED) tashkiloti barcha o'quvchilar o'qib-o'rganishi uchun xavfsiz boshpana bo'lib qolishini ta'minlashga intiladi. NYSED New York State Office of the Attorney General bilan birga immigrant o'quvchilarni himoya qilishga qaratilgan quyidagi qo'llanmani ishlab chiqdi.

Immigrant maqomiga oid ma'lumot

- ❖ New York shtatining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga asosan, besh yoshdan katta va o'rta maktabni bitirganlik diplomini olmagan 21 yoshdan kichik bolalar o'zlari yashaydigan maktab okrugidagi davlat maktablarida haq to'lamasdan o'qish huquqiga ega.
- ❖ AQSH Oliy Sudi bir necha o'n yillar oldin "Plyler v. Doe" apellyatsiyasida belgilab qo'ygandek, maktab okruglari o'zlarining yoki ota-onasi va yoki vasiylarining hujjati yoki fuqarolik maqomi bo'lmagan o'quvchilarning bepul davlat ta'limi olishini rad etishi mumkin emas.
- ❖ Maktablar ro'yxatga olish vaqtida bolaning immigrantlik maqomini oshkor qilishi mumkin bo'lgan savollar, masalan, Ijtimoiy ta'minot raqamini so'ramasligi kerak.
- ❖ U.S. Immigration and Customs Enforcement (ICE) tashkilotidan o'quvchi bilan uchrashish yoki suhbatlashish, yoki o'quvchiga oid ma'lumotlarni olish singari so'rovlar kelganda, maktab okrugi xodimlari zudlik bilan rahbarlari va maktab advokatlari bilan bog'lanishi hamda bunday iltimosni bajarish yoki bajarmaslikni aniqlab olishi shart, aks holda bu maktab okrugi "Umumiy qo'llanish to'g'risida"gi qonunni, jumladan, "New York shtatining oila ishlari bo'yicha sud to'g'risida"gi qonuni (New York Family Court Act (NYFCA)) va "Oilaning ta'lim olish huquqi va shaxsiy hayoti daxlsizligi to'g'risida"gi federal qonunini (federal Family Educational Rights and Privacy Act (FERPA)) buzishiga sabab bo'lishi mumkin.

Maktablarda kamsitish, shilqimlik va tahdidlar bilan majburlashga oid ma'lumot:

- ❖ New York shtatining "Qadr-qimmat to'g'risida"gi qonuni loyihasi 2012-yilda o'quvchilarni maktab hududi, maktab avtobusi va/yoki biror maktab tadbirida ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitishdan xoli, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish uchun qonun sifatida imzolandi va 2013-yilda unga kiber-qo'rqitishga oid qo'shimcha kiritildi.
- ❖ NYSED DASA'ga oid savollari bor okruglar, ota-onalar va vasiylarga ko'mak ko'rsatadi. Departamentga quyidagicha murojaat qilish mumkin:
 - Ikki tilli ta'lim va jahon tillari boshqarmasiga (OBEWL) (718) 722-2445 yoki obewl@nysed.gov va yoki quyidagi orqali:
 - O'quvchilarga yordam ko'rsatish xizmatlari boshqarmasiga (SSS) (518) 486-6090 yoki studentsupportservices@nysed.gov orqali.
 - Til masalasida ko'mak olish uchun "Language Regional Bilingual Education Resource Network"ning (RBERN) ota-onalarga mo'ljallangan (800) 469-8224 raqamli ishonch telefoniga yoki nysparent hotline@nyu.edu e-pochta manziliga murojaat qiling.
- ❖ Ushbu xabarlar va tarjimalarning rasmiy nusxasini olish uchun qarang: <http://www.nysed.gov/bilingual-ed/information-regarding-recent-immigration-related-actions>.

New York State Governor's office'dan qo'llanma:

- ❖ Gubernator Andrew M. Cuomo imzolagan 170-ma'muriy buyruqqa ko'ra, New York shtatining davlat muassasalari va amaldorlariga qonunchilikda talab qilinmagan yoxud nafaqa olish va yoki xizmatlardan foydalanish huquqini aniqlash uchun zarur bo'lmagan hollarda kishining immigrantlik maqomini bilsih uchun so'rov berish yoki oshkor qilish taqiqlanadi. Bunga jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv ishlarini olib bormayotgan bo'lsa, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari ham kiradi. Ma'muriy buyruq bilan mana bu yerda tanishish mumkin: <https://www.governor.ny.gov/news/governor-cuomo-signs-executive-order-prohibiting-state-agencies-inquiring-about-immigration>.
- ❖ New York State Governor's Office tashkiloti immigrantlarni qo'llab-quvvatlashini tasdiqlaydi hamda shtatning nafrat bilan bog'liq ehtimoliy jinoyatlarni tergov qilish bilan shug'ullanadigan politsiyasini (State Police Hate Crimes Unit) tuzish, barcha o'quvchilarni himoya qilish uchun New York'ning "Inson huquqi to'g'irsida"gi qonuni amal qilishini butun shtatga yoyish hamda barcha immigrantlar ma'lumot va taqdimotlardan bahramand bo'lishini ta'minlash uchun Yangi amerikaliklar va immigrantlarni qonuniy himoya qilish jamg'armasi ofisini (Office of New Americans and Immigrant Legal Defense Fund) tashkil etish singari tashabbuslarni e'lon qiladi. Gubernatorning xabarlari bilan mana bu yerda tanishish mumkin: <https://www.ny.gov/programs/we-are-all-immigrants>.

Ushbu qo'llanmadan qanday foydalanish haqida ma'lumot

New York State Education Department bolaning faqat sinf xonasida emas, uylarda ham, jamoatlarda ham ta'lim olishiga qat'iy ishonadi. Ushbu katalogda **Capital District**'dagi (**Poytaxt okrugi**) jamoat tashkilotlari ro'yxati keltirilgan, ular immigrant nyu-yorkliklar uchun foydali bo'lgan turli xizmatlarni taklif qiladi.

- ❖ Katalogda tashkilotlar ro'yxati, manzillari, bog'lanish ma'lumotlari va taklif etayotgan xizmatlari tavsifi, o'sha xizmatlar ko'rsatilayotgan tillar haqida ma'lumot beriladi.
- ❖ Tashkilotlar alifbo tartibida beriladi.
- ❖ Ro'yxatda keltirilgan xizmatlarning aksariyati bepul. Biroq ayrimlari bepul emas. Siz har doim muayyan tashkilotning xizmatidan foydalanishdan oldin uning narxini kelishib olishingiz kerak.
- ❖ Dasturlardan foydalanishni kafolatlash uchun tashkilotga oldindan qo'ng'iroq qilishingiz tavsiya etiladi.

Har bir tashkilot nomi yonida belgilangan ramzlar u qanaqa xizmatlar ko'rsatishini anglatadi.



Targ'ibot va jamoat ishlariga hissa qo'shish



Sog'liqni saqlash va sug'urta



Turarjoy



Mehnat va bandlik



Yuridik xizmatlar va huquqiy maqom



Davlat yordami



Xavfsizlik



Yoshlar va ta'lim

Tashkilot katalogi

1. Albany Law School Immigration Law Clinic (Albany, NY)

Tillar: Inglizcha

Telefon: (518) 445-2328

<http://www.albanylaw.edu/centers/clinic-and-justice-center/clinics/immigration-law-clinic/Pages/Immigration-Law-Clinic.aspx>

Huquqshunos talabalar ushlangan va ushlanmagan immigrantlar, jumladan, maishiy zo'rvonlik, intim sherik zo'rvonligi va jinsiy zo'rvonlikdan aziyat chekkan immigrantlar uchun bevosita taqdimot o'tkazishga o'rgatiladi.



2. Capital District Beginnings (East Greenbush, NY)

Tillar: Inglizcha

673 Columbia Turnpike, East Greenbush, NY 12601

Telefon: (518) 233-0544

<http://www.cdbegin.com/>

Ma'qullangan "Evaluator and Provider of Early Intervention and Preschool Special Education Services" bolalarga uylarida yoki bolalar muassasalarida keng qamrovi maxsus ta'limiy va terapiya xizmatlarini bepul ko'rsatadi.



3. Catholic Charities of the Diocese of Albany (Albany, NY)

Tillar: Inglizcha

40 North Main Ave., Albany, NY 12203

Telefon: (518) 453-6650

<http://www.ccrca.org/>

Albany Diocese cherkovining 14 ta okrugiga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy xizmat muassasasi Xizmatlarga oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana, ruhiy salomatlik bo'yicha maslahatlar, qamoqdagilarga ko'maklashish xizmatlari, sud materiallarini o'rganish, yozgi dasturlar va ma'lumotlar berish kiradi.



4. Commission on Economic Opportunity (Troy, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha

2331 Fifth Ave., Troy, NY 12180

Telefon: (518) 272-6012

<http://www.ceoempowers.org/>

Oilalar va ta'limni, maktabgacha ta'limni, ishga joylashish va moliyaviy ta'lim, sog'lom uylar hamda salomatlik va farovonlikni qo'llab-quvvatlash orqali odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy barqarorlik barpo etishga intiladigan tashkilot.



5. Empire Justice Center (Albany, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha; boshqa tillarga tarjima qiladigan texnologiya

119 Washington Ave, Albany, NY 12210

Telefon: (518) 462-6831

<https://empirejustice.org/>

Kambag'al, nogiron, turli sohalarda fuqarolik huquqidan mahrum qilingan nyu-yorkliklarning qonuniy huquqini kuchaytirish uchun sud ishlari, tartib-qoidalar va o'qitish bilan shug'ullanadi. Jinoyatdan aziyat chekkan immigrantlar masalalari bilan shug'ullanuvchi immigratsiya xizmatlari davlat yordami, vakil bo'lish va texnik yordamni o'z ichiga oladi.



6. Healthy Capital District Initiative (Albany, NY)

Tillar: Inglizcha; barcha tillarga og'zaki tarjima qilish xizmatlari

175 Central Ave., Albany, NY 12206

Telefon: (518) 462-7040

<http://www.hcdiny.org/>

A'zo tashkilotlar yordamida sog'liqni saqlashni rejalashtirish, sug'urta olish uchun ro'yxatdan o'tishda yordam berish, boshlang'ich maktabda og'zaki profilaktik xizmatlar, balog'atga yetmaganlarning salomatlik borasidagi tafovutlarini qisqartirish singari xizmatlar ko'rsatib, ijtimoiy sog'liqni saqlash muammolarini hal qiladi.



7. The Legal Project (Albany, NY)

Tillar: Arabcha, inglizcha, fransuzcha, ispancha, turkcha; boshqa tillar uchun og'zaki tarjima xizmatlari

24 Aviation Rd. Suite 101, Albany, NY 12205

Telefon: (518) 435-1770

<http://www.legalproject.org/>

Turli sohalarda unchalik qimmat bo'lmagan va bepul nomidan ish ko'rish xizmatini ko'rsatadi, huquqiy maslahat va konsultatsiyalar beradi. Ajrashish, vasiyatnomalar, bankrotlik va kredit, oilaviy zo'rvonlik, cho'ntakbop turarjoy va immigratsiya masalalarini o'z ichiga oladi.



8. Legal Services of Central New York (Broome, Cayuga, Chenango, Cortland, Delaware, Herkimer, Jefferson, Lewis, Madison, Oneida, Onondaga, Otsego, and Oswego, NY)

Tillar: Inglizcha; barcha tillarga og'zaki tarjima qilish xizmatlari

Telefon: (877) 777-6152

<https://www.lscny.org/>

Turarjoydan haydab chiqarishdan himoya qilish, maishiy sharoitlar, ijtimoiy manfaatlar, iqtisodiy xavfsizlik, iste'molchilar huquqi, ta'lim sohasida himoya qilish, ishchilar huquqi, tillardan foydalanish, immigratsiya, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, OITV/OITS, saraton, ruhiy salomatlik va uysizlik, qamoq va iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq fuqarolik ishlarida bepul huquqiy yordam ko'rsatadi.



9. Saratoga County Economic Opportunity Council, Inc. (Ballston Spa, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha

39 Bath St. P.O. Box 169, Ballston Spa, NY 12020

Telefon: (518) 288-3206

<http://saratogaecoc.org/>

Ayollar, chaqaloqlar va bolalarga xizmat ko'rsatadi, "Head Start" dasturi, shoshilinch oziq-ovqat xayriyasi va jamoat uchun tushliklar dasturi, tanglik va oilani rivojlantirish xizmatlari, advokatlik va ma'lumotlar berish hamda "Latino Community Advocacy" dasturi "Ingliz tili ikkinchi til sifatida" saboqlari bilan birga va advokatlik.



10. U.S. Committee for Refugees and Immigrants (Albany, NY)

Tillar: Arabcha, birmacha, dariycha/forscha, inglizcha, karencha, pashtucha, ispancha, urducha

991 Broadway Suite 223, Albany, NY 12204

Telefon: (518) 459-1790

<http://refugees.org/field-office/albany/>

Immigratsiya bo'yicha yuridik xizmatlar ko'rsatish, qochqinlarni joylashtirish, sud bilan bog'liq ishlarni yuritish, ishga joylashtirish xizmatlari ko'rsatish, sog'liqni saqlashga oid havolalar bilan ta'minlash, trening va amaliy seminarlar bilan shug'ullanadi.



Shtat bo'yicha resurslar

New York shtatining immigrant resurslari bo'yicha qo'llanmasi

<https://www.ny.gov/we-are-all-immigrants/new-york-state-immigrant-resource-guide>

New York shtatining immigrant resurslari bo'yicha qo'llanmasi til xizmatlaridan foydalanish, jinoyat va kamsitishga qarshi kurash, huquqiy xizmatlar, iste'molchilar huquqini himoya qilish, sog'liqni saqlashga oid xizmatlar, moliyaviy yordam va ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishga oid xizmatlar ko'rsatadigan davlat muassasalarining keng qamrovli ro'yxatini taklif etadi.

2-1-1 New York

<https://211nys.org/>

Favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq bo'lmagan ma'lumotlar xizmatining 211 telefon raqamini tering, u sizni sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot xizmatlari bilan bog'laydi. Ko'plab tillarda javob beruvchi operatorlar xizmatidan foydalanish mumkin. Ularning ma'lumotlar bazasiga onlayn kirsangiz bo'ladi.

New York shtatining Boards of Cooperative Educational Services (BOCES) kengashlari

<https://www.boces.org/>

BOCES "Katta beshlik"dan (New York shahri, Buffalo, Rochester, Yonkers va Syracuse) deyarli barcha maktab okruglarida umumiy foydalanish mumkin bo'lgan ta'lim dasturlari bilan ta'minlaydi va xizmatlar ko'rsatadi. Ayrim xizmatlarga o'rta maktab o'quvchilari uchun ish bilan bog'liq va texnik dasturlar, nogiron o'quvchilar uchun xizmatlar, yozgi maktab, kattalar uchun savodxonlik va kasb o'quv dasturlari kiradi. Yuqorida keltirilgan veb-saytdan o'zingizga yaqin BOCES'ni toping.

New York State Division of Human Rights (DHR)

<https://dhr.ny.gov/>

DHR New York shtatining "Inson huquqi to'g'risida"gi qonuni amal qilishini ta'minlaydi. Unda yosh, irq, milliy kelib chiqish, jins, jinsiy moyillik, oilaviy ahvol, nogironlik, harbiy ahvoli yoki boshqa ko'rsatilgan toifalarga qarab ishga joylashish, turarjoy, kredit olish, ijtimoiy yashash joylari sohasida kamsitish taqiqlanadi. Kamsitish holatlariga oid shikoyatingizni DHR surishtirishi uchun ularning veb-saytiga yuborishingiz yoki (888) 392-3644 telefon raqami orqali xabar qilishingiz mumkin.

New York State Office for New Americans (ONA)

<https://www.newamericans.ny.gov/>

ONA 27 ta mavzeda **Imkoniyat markazlarini** yuritadi, u yerlarda huquqiy yordam, "English-for-Speakers-of-other-Languages" (ESOL) ("Boshqa tillarda so'zlashuvchilar uchun ingliz tili") saboqlari, fuqarolik olish uchun ko'maklashish, tadbirkorlikka oid treninglar va davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha amaliy seminarlar singari turli-tuman bepul xizmatlar ko'rsatiladi. Ko'ptilli **New York State New Americans Hotline** ("New York shtatining Yangi amerikaliklar uchun ishonch telefoni") (1-800-566-7636) 200 dan oshiq tilda immigratsiyaga

oid bepul va oshkor qilinmaydigan ma'lumotlar hamda ishonchli yordam olish uchun qayerga murojaat qilish to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Office of Bilingual Education and World Languages (OBEWL)

<http://www.nysed.gov/bilingual-ed>

New York State Education Department tashkilotining OBEWL boshqarmasi "English Language Learners/Multilingual Learners" (ELLs/MLLs) ("Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilar") o'quvchilarini yo'riqnoma va resurslar bilan ta'minlaydi. Ularning veb-sayti New York maktablaridagi ELL/MLL o'quvchilari oilalarini eng yangi nizomlar va memorandumlar, shuningdek, resurslar va ishonch telefoni bilan ta'minlaydi.

Shtatdagi jamoat tashkilotlari

American Immigration Lawyers Association – New York Chapter

<http://www.aiany.org/>

"American Immigration Lawyers Association" immigratsiya to'g'risidagi qonunlarni amaliyotga tatbiq qiladigan va o'qitadigan advokatlar uyushmasidir. Ular o'n minglab AQSh kompaniyalari va ishlab chiqarish sohalari, chet ellik talabalar, shou-buznes vakillari, sportchilar va boshpana izlovchilarga aksariyat hollarda *bepul huquqiy xizmat* ko'rsatadi.

Asian American Federation

<http://www.aafny.org/>

"Asian American Federation" tashkiloti shaharning shimoli-sharqida pan-osiyo ijtimoiy xizmatlar agentliklari tarmog'ini namoyon etadi. Ular tadqiqot, siyosat targ'iboti hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, ta'lim, iqtisodiy rivojlanish, fuqarolik ishtiroki va ijtimoiy adolat sohalarida ijtimoiy boxabarlikni oshirish va tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Empire Justice Center

<https://empirejustice.org/>

Empire Justice Center markazi – New York'dagi qashshoq va fuqarolik huquqidan mahrum bo'lgan kishilarning qonuniy huquqini kuchaytirishga intilayotgan va butun shtatda faoliyat yuritayotgan tashkilot. U treninglar o'tkazadi, qo'llab-quvvatlaydi, huquqiy xizmatlar bo'yicha texnik yordam ko'rsatadi, shaxslarga bevosita fuqarolik huquqiy xizmati ko'rsatadi hamda mavjud tartib-qoidalar tahlili, tadqiqot va huquqiy himoya bilan shug'ullanadi.

Hispanic Federation

<https://hispanicfederation.org/>

"Hispanic Federation" mamlakat miqyosidagi Lotin Amerikasidan kelganlar masalalari bilan shug'ullanadigan notijorat tashkiloti bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash, immigratsiya, fuqarolik faolligi, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va atrof-muhit muhofazasi sohalarida faoliyat yuritadi. U a'zo guruhlariga xizmat ko'rsatadi,

shuningdek, Lotin Amerikasidan kelganlar manfaatlarini himoya qiladi hamda bevosita ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bilan birga jamoatchilikka yordam berish xizmatlarini yuritadi.

Immigrant Defense Project

<https://www.immigrantdefenseproject.org/> "Immigrant Defense" ("Immigrantlarni himoya qilish") loyihasi Qo'shma Shtatlardagi immigrantlarga trening va maslahat berish, sudda ko'maklashish, advokatlik, ijtimoiy faoliyat va ta'lim, kommunikatsiya va xabarlar almashish orqali halollik va adolatni ta'minlash yo'lida ish olib boradi. Ular jamoatlarni bepul huquqiy maslahat berish uchun resurslar, advokatlar va ishonch telefoni bilan ta'minlaydi.

International Refugee Assistance Project (IRAP)

<https://refugeerights.org/>

"International Refugee Assistance" ("Chet ellik qochqinlarga yordam berish") loyihasi bevosita bepul huquqiy yordam berish, sud jarayonida ko'maklashish, qochqinlar va yashash joyidan ko'chirilgan shaxslarni himoya qilish, shuningdek, o'sha kishilarni axborot va resurslar bilan ta'minlash yo'lida ishlaydi.

National Association for the Advancement of Colored People (NAACP)

<https://www.nysnaacp.org/>

NAACP barcha fuqarolar va jamiyatning siyosiy, o'quv, ijtimoiy va iqtisodiy erkinligini himoya qiladi; o'sha jamiyatda barcha shaxslar irqiga qarab kamsitishlarsiz teng huquqqa ega. Milliy uyushma fuqarolik faolligi, jinoyat ishlarini ko'rib chiqish, ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy barqarorlik sohasida faoliyat yuritadi.

New York Civil Liberties Union (NYCLU)

<https://www.nyclu.org/>

"New York Civil Liberties Union" ("Nyu-Yorkning fuqarolik erkinliklari ittifoqi") sud jarayonida yordam berish, advokatlik, ijtimoiy ta'lim va jamoat ishini tashkillashtirish singari ko'p qatlamli dastur orqali fuqarolik erkinliklari va fuqaro huquqi ta'minlanishi uchun kurash olib boradi. NYCLU tashkilotining New York shtatida 8 ta ofisi bo'lib, fuqarolik huquqi buzilishiga qarshi kurash yo'lida huquqiy xizmatlar ko'rsatadi hamda ma'lumotlar va resurslar bilan ta'minlaydi.

New York Immigrant Coalition (NYIC)

<https://www.nyic.org/>

"New York Immigrant Coalition" "(New York'ning immigrantlar koalitsiyasi)" butun New York shtatida immigrantlar va qochqinlar huquqini himoya qilish sohasida faoliyat yurituvchi 200 dan oshiq tashkilot nomidan ish ko'radigan umumiy siyosiy va huquqni himoya qilish tashkilotidir. Ular targ'ibot va safarbar qilish bilan shug'ullanadi, ko'p tillarda immigrantlarga tegishli axborot materiallarini taklif etadi, qonun va tartib-qoidalarni himoya qiladi, immigrantlarga taalluqli immigratsiya qonunlari va boshqa masalalar bo'yicha yillik amaliy seminarlar va taqdimotlar o'tkazadi.

Parent-Child Home Program (PCHP)

<http://www.parent-child.org/>

Dasturlar saytlari tarmog'i bo'lgan "Parent-Child Home" dasturi kam daromadli oilalarni ularning farzandlari maktab va hayotda ulkan salohiyatini ro'yobga chiqara olishi uchun zarur malaka va vositalar bilan ta'minlaydi. Ular New York shtati bo'ylab uylarga borish, ta'lim resurslarini tarqatish va o'quv tayyorgarligi bilan shug'ullanadigan 29 ta vebsaytni yuritadi.

Protecting Immigrant New Yorkers (PINY)

<https://protectingimmigrants.org/>

"Protecting Immigrant New Yorkers" ("Immigrant nyu-yorkliklarni himoya qilish") "New York Immigrant Coalition" tarkibiga kiruvchi ish guruhi bo'lib, davlat muassasalari bilan jamoat tashkilotlari o'rtasida immigratsiya bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlardagi qallobliklarga qarshi kurashni muvofiqlashtiradi. Ish guruhi eng yaxshi tajribalarni targ'ib qiladi, muloqotni rag'batlantiradi, qalloblarga qarshi huquqni qo'llash harakatlarini muvofiqlashtiradi, ijtimoiy boxabarlik va kampaniyalarga oid materiallar, "Huquqingizni bilib oling" degan flayerlar (reklama varaqalari), iste'molchilik sohasidagi qallobliklarga qarshi kurashishga qaratilgan tavsiyalar tayyorlaydi.

Tashakkurnoma

Biz ushbu qo'llanmani yaratishda hissa qo'shgan barcha-barchaga alohida tashakkurimizni izhor qilamiz. Bundan tashqari, quyidagi muassasalarning ko'magini astoydil qadrlaymiz:

Advocates for Children



Education Trust NY



Hispanic Federation



New York Immigration Coalition



Regional Bilingual Resource Networks (RBERNs)

OFFICE OF BILINGUAL EDUCATION AND WORLD LANGUAGES
<http://www.p12.nysed.gov/biling/bilinged/> OBEWL@NYSED.GOV

